NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 5-noyabr | 506-6-81-Q/25 | Mingbuloq tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2026-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 04-avgustdagi “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-126-sonli farmoniga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2026-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (Keyingi o‘rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi.) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha 116,8 tani tashkil etadigan 7.0 foiz miqdorida, shu jumladan:

nogironlar uchun 3,0foiz (50 ta);

Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari uchun 2,9 foiz (49 ta);

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar uchun 0.7 foiz (11 ta);

Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 0,3 foiz (6 ta);

Odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,1foiz (1 ta) miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, o‘qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul va boshqa lavozimlar.

4. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

2026-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2026-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

5. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (N.Mamajonov) “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizmini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-64, 2024-yil 14-fevral) qaroriga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lashni ta’minlasin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (N.Mamajonov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Mingbuloq” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari– tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Mansurov**

Mingbuloq tumani hokimining
2025-yil 5-noyabrdagi
506-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi:

1. A.Abdusalomov - Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari

Komissiya raisining o‘rinbosari:

2. N.Mamajonov - Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

3. Sh.Mamarasulov - Tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi mudiri

4. Sh.Umaraliyev - Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori

Komissiya kotibi:

5. Sh.Maxmudova - Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlikka ko‘maklashish bo‘limining ishsizlarni hisobga olish va ishga joylashtirish shu’basi

Izoh*: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.*

Mingbuloq tumani hokimining
2025-yil 5-noyabrdagi
506-6-81-Q/25-son qaroriga
2-ilova

№	Korxona va tashkilot nomi	ИНН	Jami ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	Nogironlar uchun		Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari		Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar		Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota ona qaramog‘idan maxrum bo‘lgan shaxslar		Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan shaxslar		Odam savdosidan jabrlangan shaxslar	
					soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1	Mingbuloq tuman 1-son politexnikumi	205208410	98	6,9	2,9	3,0	3,0	3,1		0,0		0,0	1	1,0		0,0
2	"MINGBULOQ TUMAN 2-SON politexnikum	206930313	40	2,8	1,2	3,0	0,8	2,0		0,0		0,0	0,8	2,0		0,0
3	"MINGBULOQ TUMANI MADANIYAT BO‘LIMI"	200073269	57	4,0	1,7	3,0	1,3	2,3		0,0		0,0	1	1,8		0,0

4	"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI	309862836	77	5,4	2,3	3,0	1,1	1,4	1	1,3		0,0	1	1,3		0,0
5	2-VILOYAT FTIZIATRIYA SHIFOXONASI	203315612	135	9,5	4,1	3,0	4,4	3,3		0,0		0,0		0,0	1	0,7
6	MINGBULOQ YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI	200069826	75	5,3	2,3	3,0	2,0	2,7		0,0		0,0	1	1,3		0,0
7	MINGBULOQ TUMAN SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO'LIMI	200073126	50	3,5	1,5	3,0	2,0	4,0		0,0		0,0		0,0		0,0
8	1 -sonli umumta'lim maktabi	206873431	53	3,7	1,6	3,0	2,1	4,0		0,0		0,0		0,0		0,0
9	3 -sonli umumta'lim maktabi	206873416	75	5,3	2,3	3,0	3	4,0		0,0		0,0		0,0		0,0
10	4 -sonli umumta'lim maktabi	206873455	87	6,1	2,6	3,0	2,5	2,9	1	1,1		0,0		0,0		0,0
11	5 -sonli umumta'lim maktabi	206873503	37	2,6	1,1	3,0	1,5	4,1		0,0		0,0		0,0		0,0

12	6 -sonli umumta’lim maktabi	206873376	63	4,4	1,9	3,0	1,5	2,4	1	1,6		0,0		0,0		0,0
13	7 -sonli umumta’lim maktabi	206873409	102	7,1	3,1	3,0	2,0	2,0	1	1,0		0,0	1	1,0		0,0
14	10 -sonli umumta’lim maktabi	206873424	87	6,1	2,6	3,0	2,5	2,9	1	1,1		0,0		0,0		0,0
15	11 -sonli umumta’lim maktabi	206873448	72	5,0	2,2	3,0	1,8	2,5	1	1,4		0,0		0,0		0,0
16	12 -sonli umumta’lim maktabi	206873527	74	5,2	2,2	3,0	2,0	2,7	1	1,4		0,0		0,0		0,0
17	13 -sonli umumta’lim maktabi	206873487	98	6,9	2,9	3,0	2,0	2,0	2	2,0		0,0		0,0		0,0
18	17 -sonli umumta’lim maktabi	206873566	76	5,3	2,3	3,0	2,0	2,6	1	1,3		0,0		0,0		0,0
19	20 -sonli umumta’lim maktabi	206873581	41	2,9	1,2	3,0	1,7	4,1		0,0		0,0		0,0		0,0
20	22 -sonli umumta’lim maktabi	206873606	33	2,3	1,0	3,0	1,3	3,9		0,0		0,0		0,0		0,0
21	25 -sonli umumta’lim maktabi	206873638	45	3,2	1,4	3,0	0,8	1,8	1	2,2		0,0		0,0		0,0
22	29 -sonli umumta’lim maktabi	206873677	37	2,6	1,1	3,0	1,5	4,1		0,0		0,0		0,0		0,0
23	35 -sonli umumta’lim maktabi	206873732	52	3,6	1,6	3,0	2,0	3,8		0,0		0,0		0,0		0,0
24	46 -sonli umumta’lim maktabi	207300669	30	2,1	0,9	3,0	1,2	4,0		0,0		0,0		0,0		0,0
25	3-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207092335	34	2,4	1,0	3,0	1,4	4,1		0,0		0,0		0,0		0,0
26	49-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	305458010	40	2,8	1,2	3,0	1,6	4,0		0,0		0,0		0,0		0,0
	JAMI		**1668**	**116,8**	**50,0**	**3,0**	**49,0**	**2,9**	**11**	**0,7**	**0**	**0,0**	**6**	**0,3**	**1**	**0,1**